

**Temirova M.A.**

1-bosqich magistranti

Qarshi iqtisodiyot va pedagogika Pedagogika yo'nalishi

---

## **OILADA OTA – ONA VA BOLA O'RTASIDA YUZAGA KELADIGAN KONFLIKTLAR**

**Annotatsiya:** Ushbu maqola "Oilada ota-onalar va bola o'rtasida yuzaga keladigan konfliktlar" mavzusini o'rganadi. Oilaviy munosabatlar, muloqot va emotsional jihatlar konfliktlarning kelib chiqishida muhim rol o'ynaydi. Ota-onalar va bolalar o'rtasidagi qarama-qarshiliklarning asosiy sabablari, jumladan konfliktlarni hal etishning samarali usullari, masalan, ochiq muloqot, hissiy salomatlikni saqlash va muammolarni birgalikda hal qilish usullari haqida fikr yuritiladi. Tadqiqot natijalari oilada konfliktlarni boshqarish va ularni hal etish uchun yangi yondashuvlarni taklif etadi, bu esa oilaviy hayot sifatini yaxshilashga yordam beradi.

**Kalit so'zlar:** emotsional, konflikt, muloqot, qarama qarshilik, ziddiyat cheklovlar, muammo, tadqiqot, yonashuv, his-tuyg'u, norozilik, qadryatlar,

**Annotatsiya:** This article examines the topic "Conflicts between parents and children in the family." Family relationships, communication and emotional aspects play an important role in the origin of conflicts. The main causes of conflicts between parents and children, including effective methods of conflict resolution, such as open communication, maintaining emotional health and solving problems together. Research results suggest new approaches to family conflict management and resolution, which help to improve the quality of family life.

**Keywords:** emotional, conflict, communication, relative resistance, conflict limitations, problem, research, approach, feeling, protest, values,

---

**"Oila – jamiyatning asosi. Oila ichidagi munosabatlar, farzandlarimizga hayotda mustahkam poydevor yaratadi." kimning so'zlari**

**SH.M.Mirziyoyev.O'zbekiston**

**Respublikasi Prezidenti.**

Oilada ota-onalar va bolalar o'rtasida vujudga keladigan konfliktlar turli omillar va vaziyatlarga bog'liqdir. Ota-ona va bolalarning fikrlash tarzlari o'rtasida farq bo'lganda, ota-ona bolalarga qo'yayotgan talablar va kutishlar, ota-onalarning bolalarga e'tibor taqsimoti, ochiq va samimiy muloqotning yo'qligi kabi va boshqa vaziyatlarda vujudga keladi. Bundan tashqari generatsiya farqlari ya'ni ota-onalar va bolalar o'rtasidagi qarashlar va qadriyatlar farqlari. Ota-onalar an'anaviy qoidalarga rioya qilishi bolalar esa zamonaviy fikrlash va boshqacha yondashuvlarni qabul qilishi mumkin. Ota-onalar va bolalar o'rtasidagi ziddiyatlar haqida buyuk alloma va mutafakkirlarning ham aytgan bir qancha fikrlar mavjud.

Turli vaziyatlarda vujudga keladigan kelishmovchiliklarga misollar aytib o'tamiz.

1. Ta'lim tanlovidagi : Ota-onalar farzandlarini o'zlari hohlagan yo'nalishda (masalan, tibbiyot yoki harbiylik) o'qishga majburlashga harakat qilishsa farzandlar esa o'z hohishlariga binoan san'at yoki sport kabi boshqa sohalarni xohlashadi.

2:Mustaqillik va cheklovlarda. Bolalar o'zlarining erkinligini, misol uchun , do'stlari bilan ko'proq vaqt o'tkazishni talab qilsalar, ota-onalar esa bu holatlarni cheklashga harakat qilishi mumkin. Bu, farzandlar o'rtasida norozilik kayfiyatini tug'dirishi mumkin.

3.Uy ishlarida Ota-onalar bolalariga uy ishlarida yordam berishlarini yoki ko'proq vazifalarni yuklashlari , bolalar esa buni yoqtirmasliklari yoki buni bajarishga norozilik bildirishi mumkin.

4.Muloqotdagi qiyinchiliklarda :Ota-onalar bolalarning his-tuyg'ularini tushunmasliklari, bolalar esa o'z fikrlarini ifoda bildirsa olmasliklari natijasida kelishmovchiliklar paydo bo'lishi mumkin.

5.Texnologiyalardan foydalanish. Ota-onalar bolalariga ekran vaqti uchun chegara qo'yishsa , bolalar esa mobile telefon yoki kompyuterdan foydalanishni talab qilishganda ziddiyatlar kelib chiqadi.

Oila ichidagi ziddiyatlarni kamaytirish uchun bir necha yechimlarni sinab ko'rishingiz mumkin:

**1.Ochiq muloqot:**Bola bilan ochiq va samimiy suhbatlar o'tkazish Har bir kishi o'z fikrlarini va his-tuyg'ularini erkin ifoda etishga imkon berish.

**2.Qarorlar qabul qilishda ishtirok:** Bolalar va ota-ona birgalikda qarorlar qabul qilishi, hamkorlik va hurmatni oshiradi. Misol uchun, oilaning rejaları yoki qiziqarli faoliyatlarni birgalikda muhokama qilish

**3. Birgalikda vaqt o'tkazish:** Oilada ota-ona va bolalar ko'proq vaqt o'tkazishi ziddiyatlarni kamaytirishi mumkin. O'yinlar o'ynash, filmlar tomosha qilish yoki tabiatga sayohat qilish kabilar buni amalga oshirishga yordam beradi.

**4. Ijoby munosabatlar:** Har bir kishi o'zaro ijoby munosabatlarni rivojlantirishga harakat qilishi. kichik maqtoqlar yoki yordam berish, munosabatlarni mustahkamlashga yordam beradi.Ziddiyatlarni hal qilish vaqt talab qilishi mumkin, shuning uchun sabrli bo'lish muhim. Agar zarurat tug'ilsa, professional psixolog yoki maslahatchi bilan maslahatlashishni ham o'ylab ko'rishingiz mumkin.Ota-onalar va bolalar o'rtasidagi ziddiyatlar haqida buyuk mutafakkirlar va allomalarning bir qancha fikrlari mavjud. Jumladan,Al-Farobi"Yaxshi jamiyatning yaratilishi oiladan boshlanadi. Oila ichidagi munosabatlar, farzandlarimizga hayotda mustahkam poydevor yaratadi."kabi yoki Abu Rayhon Beruniyning "Farzandlarimiz kelajakda yurtimizga xizmat qiluvchi insonlar bo'lishi kerak. Buning uchun ularga sevgi, e'tibor va to'g'ri tarbiya berishimiz zarur."degan bu kabi fikrlari, ota-onalar va bolalar o'rtasidagi ziddiyatlarni kamaytirish, oilaning ahamiyatini va tarbiyaning rolini ta'kidlab o'tadi. Oila ichidagi sog'lom munosabatlar va muhit farzandlarning kelajagi uchun muhim poydevor bo'ladi.

Muallif sifatida shuni ma'lum qilamanki Oilada yuzaga keladigan bu kabi konfliktlarni hal etish uchun muloqot yani ochiq va samimiy mulotqot , tushunish va o'zaro hurmat muhim ahamiyatga ega deb o'ylayman. Konfliktlarni samarali hal etish uchun tajriba va bilimlarga tayanish zarur Konfliktlarni samarali hal etish orqali oilaning mustahkamligiga va farzandlarning rivojlanishiga zamin yaratish mumkin. Oilada ziddiyatlarni kamaytirish uchun yana bolalarni tinglash tushunish fikrini to'liq ravon bildirishida cheklovlar qo'ymaslik ularni har tomonlama qo'llab quvvatlash ,rag'batlantirish , muammolarni ochiq va adolatli muhokama qilish zarur . Farzandlarning tarbiyasi va rivojlanishi uchun oilaviy muhitning yaxshi bo'lishi juda muhimdir..

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Axmedova .M Pedagogic konfliktologiya o'quv qo'llanma/axmedova M.-  
Toshkent : <<Donishmad ziyosi>>MCHJ,2020.

2. Muallif: E. K. Shoniyazov Konfliktologiya: Nazariya va amaliyot (yil: 2020)

3. N. M. Tojiev "Oila ichidagi konfliktlar" (yil: 2018)

4. R. A. Abdullayev Konfliktlarni hal etish texnologiyalari" – (yil: 2015)

5. S. T. Murodov "Konfliktlarni tahlil qilish va hal etish" (yil: 2018)